



TALABALARNING SSENARIYNAVISLIK KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDA

Mamatqosimova Nodira Eshquvatovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning ssenariynavislik ko'nikmasini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida o'rganilgan bo'lib, maqolada madaniy tadbirlarning ijtimoiy ahamiyati, madaniy tadbirlar ssenariysi yaratishning ijodiy jarayoni va ssenariy muallifiga qo'yiladigan talablar, shuningdek Respublikamizda o'tkazilayotgan madaniy tadbirlarning ma'naviy-estetik ahamiti tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, madaniy tadbir, ssenariy, ko'nikma, estetik tarbiya, kasbiy komponent, rejissyor.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ СЦЕНАРИСТА У СТУДЕНТОВ КАК СОЦИАЛЬНАЯ ПОТРЕБНОСТЬ

Аннотация. В статье рассматривается развитие навыков сценаристов у студентов как социальная потребность. В статье анализируется социальная значимость культурных мероприятий, творческий процесс создания сценария культурных мероприятий и требования, предъявляемые к сценаристу, а также духовно-эстетическая значимость культурных мероприятий, проводимых в нашей Республике.

Ключевые слова: культура, искусство, культурное мероприятие, сценарий, мастерство, эстетическое воспитание, профессиональная компетенция, режиссер.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' SCRIPTWRITING SKILLS AS A SOCIAL NEED

Annotation. This article studies the development of students' scriptwriting skills as a social need, and the article analyzes the social significance of cultural events, the creative process of creating a script for cultural events and the requirements for the scriptwriter, as well as the spiritual and aesthetic significance of cultural events held in our Republic.

Keywords: culture, art, cultural event, script, skill, aesthetic education, professional component, director.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash [2] maqsadida ta‘limiy va madaniy jabhalarni tizimli isloh qilish, ilmiy-tadqiqot va ijrochilik mahoratining yangi tizimini joriy qilish, davlat musiqali, drama hamda qo‘g‘irchoq teatrlarida yagona repertuar strategiyasi asosida g‘oyaviy, ma‘naviy va badiiy jihatdan puxta yaratilgan sahna asarlarini namoyish etish, teatr va sirk san‘ati ustalari tomonidan “ustoz-shogird” an‘analari va mahorat maktablari asosida ta‘lim berish tizimining yo‘lga qo‘yilishi [1] muhim vazifa sifatida belgilandi.

Bugungi davrda Yangi O‘zbekiston “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan muhim g‘oya negizida barpo etilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Bu borada ma‘naviy-madaniy islohotlar birlamchi bo‘lib, davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni aholining keng qatlamiga san‘at vositalari orqali yetkazish samaraliroqdir. “Albatta, biz xalqimizning ma‘naviy kamol topishida madaniyat namoyandalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e‘tirof etamiz. Yuksak ideallar yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, o‘zligimizni anglash, g‘urur va iftixor, milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun bel bog‘lab maydonga chiqish – siz, ijod ahliga xos ezgu fazilat ekanini hammamiz yaxshi bilamiz va buni yuksak qadrlaymiz” [4].

Mamlakat taraqqiyoti va ravnaqi yo‘lida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish maqsadida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “zamonaviy teatr va sirk san‘atini har tomonlama rivojlantirish, yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish”, “O‘zbek milliy san‘atini jahon sahnalarida keng targ‘ib qilish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish” [2] maqsadida ta‘limiy va madaniy jabhalarni tizimli isloh qilish, zamonaviy teatr va sirk san‘ati yo‘nalishida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va yuksak badiiy-g‘oyaviy saviyaga ega sahna asarlarini yaratish, o‘zbek milliy san‘atini jahon sahnalarida keng targ‘ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish, madaniyat va san‘at sohasida faoliyat yuritayotgan ijodkor yoshlarni saralash, ular uchun ijodiy maydon yaratish hamda yangi iste‘dodlarni kashf etish [3] ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Madaniy tadbirlar jamiyat ma‘naviy ko‘zgusi bo‘lib, unda millat va davlatning qudrati, ma‘naviy boyligi, madaniy qadriyatlari mujassam bo‘ladi, badiiy vositalar orqali dunyoga tarannum etiladi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishdan asosiy maqsad – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish, o‘sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma‘naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo‘lgan hurmatni uyg‘otish va saqlash, ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarda faol ishtirok etishdir. Zotan, xalqlarning o‘ziga xosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san‘at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an‘ana va urf-odatlarining o‘zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat muhitini qaror toptirish [6:4].

U.H.Qoraboyev madaniy tadbirlar yuzasidan quyidagicha fikr bildiradi: “Tadbirlarda keng qamrovli ishlar olib boriladi va ular kishilarning ishdan bo‘sh vaqtida kerakli axborotlar berish, badiiy-estetik zavqlantirish, madaniy-ijodiy ishga jalb qilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham unga kengroq tushuncha va atama zarur bo‘lmoqda. Ularni keng qamrovli “madaniy tadbirlar” deb atasa yaxshi bo‘ladi. Kezi kelganda shuni aytish lozimki, “ommaviy tadbirlar”, “badiiy tadbirlar” atamalariga ham murojaat kilish mumkin” [9:123].

R.Sh.Rustamova esa “Madaniy-ma’rifiy tadbirlar deganda aholini ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning madaniy saviyasini oshirish, bilimni o‘stirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtini, dam olishini ko‘ngilli o‘tkazish, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat kiluvchi tadbirlar tushuniladi” [5:12] – deb qayd etadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “tadbir” – biron ishni, maqsadni amalga oshirish, ro‘yobga chiqarish vositasi – shuning uchun puxta o‘ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar majmuidir, deyilgan. Madaniy tadbirlar to‘g‘risida shu soha olimlari turli fikr mulohazalarni aytib o‘tganlar.

Ular bu tushunchani badiiy ommaviy tadbirlar deb, yana boshqalar madaniy-ma’rifiy ishlar deb yuritganlar. Madaniy tadbirlar esa bu jarayonlarning barchasini o‘zida qamrab oladigan ijodiy va tashkiliy jarayondir [6:724].

Madaniy tadbirlarni kengroq ma’noda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Ommaviy bayramlar, konsert dasturlari, tematik kechalar, turli mavzudagi musiqiy, badiiy, publitsistik, xoreografik kompozitsiya va h.k.lar, bog‘lar, maydonlarda o‘tkaziladigan turli janrlardagi tadbirlar umumiy nom bilan madaniy tadbir tushunchasiga teng boladi [5:12]. Bir so‘z bilan aytganda ijodiy, uslubiy jihatdan mukammal, puxta tayyorlangan, to‘g‘ri tashkil etilgan dasturlar madaniy tadbir desak to‘g‘ri bo‘ladi. U.H.Qoraboyev tasnifiga ko‘ra madaniy bayramlarning (tadbirlarning) qamroviga qarab ularni shartli ravishda uch guruhga bo‘ladi.

Birinchi guruh – tabiat va mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mavsumiy bayramlar;

Ikkinchi guruh – inson kamoloti, oila hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan oilaviy marosim va tantanalar;

Uchinchi guruh – jamiyat ma’naviyati, e’tiqodlar bilan bog‘liq diniy bayramlar shular jumlasidandir [10:72].

Madaniy tadbirlar yuzasidan tadqiqot olib borgan B.S.Sayfullayev va V.Q.Rustamov madaniy tadbirlarni quyidagi turlarga ajratadi va ularning spetsifik jihatlarini ta’riflaydi [5:52]:

1. Turli janrlarda tashkil etilgan konsertlar va bayramlar,
2. Davra suhbatlari
3. Mavzuli kechalar
4. Viktorina
5. Ko‘rik-tanlovlar
6. Debat
7. Badiiy-sport tomoshalari

Muhokama va natija. Madaniy tadbirlar dasturining badiiy saviyasini yuksak darajada ta'minlanishida ssenariy va uni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etib, ssenariy tayyorlash va madaniy tadbirni tashkil etish o'ziga xos mahorat, bilim, malaka va ko'nikma talab etadi. Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda dramaturg va rejissyorning o'zni katta bo'lib, bu jarayon ham ijodiy, ham tashkiliy jarayonlardan iboratdir.

Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyotida madaniy tadbirlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlatning taraqqiyot omillari bevosita badiiy vositalar orqali madaniy tadbirlarda namoyish etiladi, targ'ib qilinadi. Shu sababli keyingi yillarda yurtimizda madaniy tadbirlar, bayram va tomoshalarga, festivallar va tanlovlarga katta ahamiyat berilib, yuqori badiiy saviyada tashkil etilib, o'tkazilib kelinmoqda. Madaniy tadbirlar ijtimoiy hayotimizning muhim jabhasiga aylanganki, o'z o'rnida madaniy dam olish vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan ma'naviy kamol topish, estetik zavq olish kabi funksiyalarni bajarib kelmoqda.

Madaniy tadbirlarni – eng avvalo, insonlar uchun tashkil etiladigan, ularning bo'sh vaqtlarini to'ldiradigan, ijodiy, estetik qarashlarini shakllantiradigan, madaniy bilimlarini boyitadigan jarayon deb tushunish mumkin. Insonlar ishdan bo'sh paytlarida madaniy ehtiyojlarini qondirishlari maqsadida turli ijodiy, ko'ngilochar, san'at vositalari ishtirok etgan jarayonlarda qatnashishni xohlaydilar.

Shahar sharoitida teatrlar, turli konsert dasturlari, bog'lar, madaniyat va aholi dam olish markazlari va boshqa dam olish maskanlariga borib, o'zlarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladilar. Qishloq sharoitlarida esa bunday imkoniyatlarni madaniyat markazlarida, madaniyat va istirohat bog'larida amalga oshirish mumkin bo'ladi. Har qanday madaniy tadbir ijodiy va tashkiliy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ijodiy ishlarga tadbirning ssenariy rejasini tuzish, ssenariysini yozish, sahnalashtirish, badiiy jamoalar bilan ishlash, tadbir o'tadigan joyni bezash kabi ishlar kirsa, tashkiliy ishlarga esa ana shu ijodiy ishlarni amalga oshirish uchun qilinadigan barcha ishlar kiradi. Masalan, badiiy jamoalar bilan ishlash uchun mikrofonlar, texnik jihozlarni tayyorlash kabi vazifalar shular jumlasidandir. Yoki, sahnani bezash uchun rassom ijodiy nuqtayi nazardan yondashganda ham unga aynan duradgor kerak bo'ladiki, u sahnani bezagi uchun kerakli jihoz yoki materiallardan foydalanadi, ya'ni sahna uchun kerakli figura, shakl va boshqalarni tayyorlab beradi.

Har bir tadbir o'zining xususiyati jihatidan pedagogik asosga ega. Chunki pedagogika ham asosan tarbiyaviy jarayonlarni boshqaradi. Insonlarga ta'sir qilish, bola tarbiyasi, ibrat, ma'naviy ozuqa, bilimli-ilmli bo'lish, ustozlarga, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat va boshqa barcha shu kabi tushunchalarni pedagogika sohasida yanada chuqur o'rganiladi. Madaniy tadbirlarda esa pedagogik mahoratni qo'llash katta samaralarga erishishga yo'l ochadi. Aynan pedagogik fazilatlarni madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayonlarida qo'llash ham tadbirning salmog'ini oshirishga xizmat qiladi. Tadbir tashkilotchisining ta'lim bilan tarbiya uyg'unligiga erishishda uning pedagogik mahorati ham katta rol o'ynaydi. Madaniy tadbirlar – zamonaviy bayramlarning o'ziga xos janri bo'lib, o'z o'rnida ijodiy jarayondir. Madaniy tadbirlar asosan, ikki qismdan iborat bo'ladi:

1. Dramaturgiya (ssenariy) asarini yaratish.
2. Yaratilgan asarni sahnalashtirish (asar rejissurani amalga oshirish) [8:35].

Madaniy tadbirlar dramaturgiyasi va rejissurasi bir butun jarayondir. Ma'lumki, har bir ishni boshlashdan oldin, ishni bajarilishi yuzasidan maxsus reja tuziladi. Madaniy tadbirlarni tayyorlashda ham eng avvalo uni rejalashtiradi. Tadbirni o'tkazishda tashkiliy guruh tuzilib, unga rahbar tayinlanadi. Rahbar tadbirning yuqori saviyada o'tishi uchun shu soha mutaxassislari: mahalliy dramaturglarni, rejissyorlarni, baletmeyster hamda madaniyat va san'at muassasasi ijodiy xodimlarini jalb etadi. Maxsus bir tadbir uchun eng avvalo mas'ul shaxslar-ssenariy muallifi va rejissyor kelishgan holda, umumiy reja asosida har bir kishiga taalluqli ishlarning rejalarini, kundalik ish faoliyatini aniqlaydi.

Bayramshunos olim, professor U.X.Qoraboyev bu xususida "Badiiy madaniy tadbirlar" kitobida shunday yozadi: "Ssenariy yozish bilan kim shug'ullanmasin, u quyidagi talablarga javob bermog'i lozim:

- a) ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotni, mahalliy aholi mehnati va turmushini chuqur tushuna oladigan hamda uni to'g'ri tahlil qila oladigan shaxs bo'lmog'i;
- b) adabiyot va dramaturgiya sohasida bilimga ega bo'lgan, ulardan samarali foydalana oladigan kishi bo'lishi;
- d) hayotiy materiallarni, hujjatli dalillarni yig'a oladigan, ularni adabiy-badiiy shaklda bayon qila biladigan ijodkor bo'lmog'i lozim" [8:37].

Shu nuqtai nazardan talabalarning ssenariynavislik ko'nikmasini rivojlantirishning quyidagi ijtimoiy zarurati mavjud:

- madaniy tadbirlar ijtimoiy voqea bo'lib shaxs ma'naviy va estetik tarbiyasiga madaniy ta'sir ko'rsatuvchi badiiy omil ekanligi;
- madaniy tadbirlar ssenariysida ijtimoiy hayotdagi voqelik, odamlar orzu-umidlari va xohishlari, jamiyatda erishilayotgan yutuqlar badiiy vositalar asosida yoritilishi bois ssenariy tayyorlanishida bu jihatlar birlamchi omil ekanligi;
- madaniy tadbirlar ssenariysini tayyorlovchi ijodkorlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy va kasbiy kompetentligi muhim omil ekanligi;
- madaniy tadbirlar ssenariysi bilan shug'ullanuvchi ijodkorlarni tayyorlashda ta'lim jarayoniga ustoz-shogird an'alarini tatbiq etish bilan birgalikda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish pedagogik omil ekanligi ijtimoiy zaruratdir.

Xulosa. Hozirgi kunda respublika miqyosida o'tkazilayotgan barcha madaniy tadbirlar va ommaviy bayramlarda yurtimizning ko'zga ko'ringan ijodkorlari ssenariy hammualliflari bo'lib ishtirok etib kelmoqdalar. Ular yurtimizda bo'layotgan chuqur o'zgarishlarni, Yangi O'zbekiston g'oyalari ostida Uchinchi renessansga erishish, Vatanni sevish, o'z ishiga, Vataniga, oilasiga mehr-oqibatli bo'lish, mamlakatning rivojlanishida yoshlarning o'rnini belgilash, qariyalarga hurmat-e'tiborda bo'lish kabi ezgu maqsad va g'oyalarni turli badiiy vositalar orqali o'z ssenariylari orqali tomoshabinlar e'tiboriga havola etishga intilmoqdalar va

buning uddasidan ham chiqmoqdalar. Ular sahnalashtirgan bayram va tomoshalari orqali Yangi O‘zbekiston timsolini ko‘klarga ko‘tarib, uning ravnaqiga katta hissa qo‘shmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniyat va turzim sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-114-son farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.07.2023-y., 06/23/114/0527-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida”gi PF-158-son farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06/23/158/0694-son. 12.09.2023-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.02.2024-y., 06/24/37/0146-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2017-yil 4-avgust.
5. Bekmatov A. Rustamova R. Milliy g‘oya targ‘iboti va madaniy-ma’rifiy tadbirlar. – Toshkent.: Ma’naviyat, 2008.
6. Sayfullayev B.S., Rustamov V.K. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2016.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat milliy nashriyoti, 2006.
8. Qoraboyev U.X. Badiiy-ommaviy tadbirlar. – Toshkent.: O‘qituvchi, 1986.
9. Qoraboyev U.X. Madaniy tadbirlar. – Toshkent.: Toshkent kartografiya fabrikasi, 2003.
10. Qoraboyev U.X. O‘zbek xalqi bayramlari. – Toshkent.: Sharq, 2002.